



ABU ALI IBN SINO-QOMUSIY OLIM VA JAHON TIBBIYOTI  
TARAQQIYOTINING ASOSCHISI

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti*

*Filologiya fakulteti 1-bisqich talabasi*

*Xushbaqova Risolat Abdurashidovna*

[Xushbaqovarisolat@gmail.com](mailto:Xushbaqovarisolat@gmail.com)

+998 99 167 35 07

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada buyuk mutafakkir va qomusiy olim Abu Ali ibn Sinoning jahon ilm-fani, xususan, tibbiyot rivojiga qo'shgan ulkan hissasi yoritilgan. Olimning "Tib qonunlari" asari asrlar davomida Sharq va G'arbda tibbiyotning asosiy qo'llanmasi bo'lib xizmat qilgani, uning kasalliklarni tashxislash va davolashdagi yangicha yondashuvlari tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada Ibn Sinoning boshqa fan sohalaridagi kashfiyotlari va ularning bugungi kundagi ahamiyati haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Abu Ali ibn Sino, Sharq uyg'onish davri, Tib qonunlari, asarlari, qomusiy olim, tibbiyot asoschisi, Avitsenna, farmakologiya, gigiyena, xalqaro e'tirof.

**Abstract:** Three articles cover the great contribution of the great thinker and encyclopedist Abu Ali ibn Sina to the development of world science, in particular, medicine. Sina's discoveries in other sciences and his significance in the field today are discussed.

**Keywords:** Abu Ali ibn Sina, Eastern Renaissance, Medical Canons, works, encyclopedist, founder of medicine, Avicenna, pharmacology, hygiene, international recognition.

**Аннотация:** Три статьи посвящены огромному вкладу великого мыслителя и энциклопедиста Абу Али ибн Сины в развитие мировой науки, в частности, медицины. Рассматриваются открытия Сины в других науках и его значение в этой области сегодня.



*Ключевые слова: Абу Али ибн Сина, Восточное Возрождение, Медицинские каноны, труды, энциклопедист, основатель медицины, Авиценна, фармакология, гигиена, международное признание.*

Abu Ali ibn Sinoning to'liq ismi-Abu Ali al-Husayn ibn Abdulloh ibn Sino al-Balxiy,taxminan 980-yil,Afshona,Movarounnahr,Somoniylar davlati-1037-yil 18-iyun,Hamadonda-qomusiy olim,tabib va faylasuf bo'lgan.Tarixdagi eng ulug' musulmon olimlardan biri sifatida tanilgan.U yoshligidan kitoblarni o'qishga qiziqqan.Ibn Sinoning otasi Abdulloh Balx shahridan bo'lib,Somoniylar amiri Nuh ibn Mansur davrida Buxoro tomoniga ko'chib,Hurmaysan qishlog'ida moliya amaldori etib tayinlandi.U Afshona qishlog'ida Sitora ismli qizga uylanib ikki o'g'il farzand ko'radi.O'g'illarining kattasi Husayn ya'ni Ibn Sino,kenjasi Mahmud edi.Husayn 5 yoshga kirgach,uning oilasi poytaxti-Buxoroga ko'chib keladi va uni o'qishga beradilar.10 yoshga yetmasdan Ibn Sino Qur'on va adab darslarini to'la o'zlashtiradi.Ayni vaqtda u hisob va aljabr bilan ham shug'ullanadi,arab tili va adabiyotini mukammal egallaydi.Ibn Sinoning ilm sohasidagi dastlabki ustozlari Abu Abdulloh Notiliy edi.U el orasida hakim va faylasuf sifatida mashhur bo'lgani uchun otasi Ibn Sinoni unga shogirdlikka berdi.Notiliyning qo'lida olim mantiq,handasa va falakiyot ya'ni astronomiyani juda mukammal o'rganadi va ba'zi falsafiy masalalarda ustozidan ham o'zib ketadi.Ibn Sinoning aql-zakovatini ko'rgan ustozlari otasiga uni ilm va fandan boshqa narsa bilan shug'ullantirmaslikni tayinlaydi.Shundan so'ng ota o'g'liga ilm o'rganish va bilimlarini chuqurlashtirish uchun barcha sharoitlarni yaratib berdi.Abu Ali tinmay mutolaa qilib,turli ilm sohalarini o'zlashtirishga kirishdi.U musiqa,optika,kimyoy,fiqh kabi fanlarni o'qidi,xususan,tabobatni sevib o'rgandi va bu ilmda tez kamol topa boshladi.Va keyinchalik u tabobat ilmining qadimgi allomalari Gippokrat va Gelen hamda o'rta asr Sharqining buyuk hakimi va mutaffakiri Abu Bakr ar-Roziyning asarlarini puxta o'rganadi.Ibn Sino 17 yoshidayoq e'tiborli hakim va olim bo'lib yetishadi.U Buxoro amiri Nuh ibn Mansurni davolab tuzatgach,somoniylarning saroy kutubxonasiidan u bir yil davomida turli sohalardagi ilmiy asarlarni mutolaa qiladi.X asr oxiri va XI asr boshlarida Movarounnahr va Hurosanda yuzaga kelgan og'ir sharoitda Ibn Sino ona



shahri Buxoroni tark etib, avval Urganchda, Xorazmshoh Ma'mun saroyidagi olimlar qatoridan joy oladi. So'ngra Mahmud G'aznaviyning tazyiqi tufayli Xorazmdan ham chiqib ketadi. U umrining oxirigacha Obivat, Go'rgon, Ray, Qazvin, Isfaxon, Xamadon shaharlarida hukmdorlar qo'l ostida tabiblik va vazirlik qiladi. 1037-yil 16-avgustda Hamadon Eronda vafot etadi. Ibn Sino arab va fors tillarida fanning turli sohalari bo'yicha 300 dan ortiq asarlar yozdi. Bu asarlarning eng buyugi "Tib qonunlari" asaridir. Abu Ali ibn Sinoning tibbiyotga oid asari. "Tib qonunlari" o'z davridagi tabobatning mufassal ensiklopediyasi bo'lib, unda inson sog'ligi va kasalliklariga oid bo'lgan barcha masalalar mantiqiy tartibda to'la bayon etilgan. Oldinlari tabobat, asosan, hunar hisoblanar va u bilan shug'ullanuvchilar nazariy masalalarga unchalik ahamiyat bermay uni amalda qo'llash bilan cheklanar edilar. Ibn Sino esa tabobatni ilm darajasiga ko'tardi va yunon, rim, hind, Yaqin va O'rta Sharq tabiblarining tajriba va fikrlariga tayanib "Tib qonunlari"da uning ham nazariy, ham amaliy masalalarini chuqur ishlab chiqdi. Ibn Sino asarlari 450 dan ortiqdir. Shulardan 40 dan ortig'i tabobatga oid, 30 ga yaqini turli tabiiy fanlarga, 180 ta risolasi falsafa, mantiq, ruxshnoslik, geologiya, etika va ijtimoiy masalalarga, 4 tasi adabiyotga, 3 ta risolasi, 5 ta musiqiy ilmga bag'ishlangan. Lekin bizga bu asarlarning 242 ga yaqini yetib kelgan. Asarlar orasidagi 18 jildli "Kitob ash-shifo" asarini falsafa bilimlar qomusi desa bo'ladi. U "Urjuza" risolasi muallifi. Ibn Sinoning tibga oid yozgan asarlarining 30 dan ortig'i bizgacha yetib kelgan, ularning orasida "Qonun" kabi tibbiy ensiklopediya bilan bir qatorda tibning ayrim nazariy va amaliy masalalariga bag'ishlangan turli hajmdagi "Urjuza fi-ttib" ("Tibbiy ur-juza"), "al-Adviyat alqalbiya" ("Yurak dorilari"), "Daf'almadorr al-kulliya an-al-abdon al-insoniya" ("Inson badaniga yetishgan barcha zararlarni yo'qotish"), "Kitob al-qulanj" ("Qulanj haqidagi kitob"), "Maqola fi-nnabz" ("Tomir urishi haqida makr-la"), "Risola fi-l-boh" ("Shahvoniy quvvat haqida risola"), "Risola fi tadbiri al-musofirin" ("Safardagilarning tadbiri haqida risola"), "Risola fi xifz as-sihha" ("Sog'liqni saqlash haqida risola"), "Risola fi-s-sikanjubin" ("Sikanjubin haqida risola"), "Risola fi-lfasd" ("Qon olish haqida risola"), "Risola fi-lhindabo" ("Sachratqi haqida risola") kabi risolalari ham bor. Ibn Sino o'z davridagi ilmlar tasnifi masalasiga ham



jiddiy e'tibor bilan qaradi va bu sohada "Aqsom al-ulum alaqliya" ("Aqliy ilmlar tasnifi") nomli asar yozdi. Unda olim aqliy ilmlarni hikmat – falsafa ilmlari deb olib, ularni nazariy va amaliy qismlarga bo'ldi. Nazariy ilmlar haqiqatni bilishga, amaliy ilmlar yaxshi ishlarni bajarishga qaratilgan. Nazariy falsafa 3 ga bo'linadi: 1) quyi darajadagi ilm, ya'ni tabiatshunoslik (tib, kimyo, astrologiya va boshqalar); 2) o'rta darajadagi ilm – matematika (geometriya, arifmetika, astronomiya, musiqa); 3) oliy darajadagi ilm – metafizika (ilohiyot). Amaliy falsafa ham uch kiyem (axloq, iqtisod va siyosat) ga bo'linib, birinchisida bitta shaxs, uning fe'l-atvori qanday bo'lishi haqida; ikkinchisida insonlarning oilada, xo'jalik ishlarida bir-biri bilan munosabatlari qanday bo'lishi va uchinchisida shahar yoki o'lka miqyosida kishilarning bir-biri bilan munosabati qanday bo'lishi, davlatni idora qilish haqida gap boradi. Bu turkumlar ham mayda tarmoqlarga bo'linib ketadi. Asarda 29 ilm tarmog'i tilga olinadi, Ibn Sino haqiqiy axloqiy fazilatlarga va ideal jamoaga shu mavjud dunyoda erishuv mumkin, jamiyatda insonlar o'zaro yordam asosida yashashlari kerak deb ta'kidlaydi. Jamiyat kishilarning o'zaro kelishuvi asosida qabul qilinadigan adolatli qonunlar yordamida boshqarilishi lozimligini aytadi. Jamiyat a'zolarining hammasi bu qonunga itoat etishlari, qonunni buzish va adolatsizlik jazolanishi lozim. Agar hokim podshoning o'zi adolatsizlikka yo'l qo'ysa, xalqning unga qarshi qo'zg'oloni to'g'ri va jamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlanmog'i kerak, deb hisoblaydi. O'zining axloq to'g'risidagi fikrlarida insonlarning kundalik ishlaridagi eng zarur axloqiy munosabatlarga, kamtarlik, izzathurmat, jasurlik, to'g'rilik, sofdillik kabi xulqiy qoidalarga alohida e'tibor beradi. Ibn Sino o'zining boy va serqirra ilmiy merosi bilan keyingi davr Sharq va G'arb madaniyatining rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi. Sharqning Umar Xayyom, Abu Ubayd Juzjoni, Nasriddin Tusiy, Fariduddin Attor, Ibn Rushd, Nizomiy Ganjaviy, Faxriddin Roziy, at-Taftazoniy, Nosir Hisrav, Jaloliddin Rumiy, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Ulug'bek, Bedil, Bahma-nyor ibn Marzbon kabi mutafakkir va olimlari o'z asarlarida Ibn Sino ta'limoti va ilmiy g'oyalarini davom ettirdilar. Yevropada allomaning asarlari 12-asr dan boshlab lotin tiliga tarjima qilinib, universitetlarda o'qitila boshlandi. Yevropaning mashhur faylasuf va tabiatshunos



olimlaridan Jordano Bruno, Gundisvalvo, Vilgelm Overnskiy, Aleksandr Gelskiy, Albert fon Bolshtedt, Foma Akvinskiy, Rojer Bekon, Dante va boshqalar I. S.ning ilg'or fikrlaridan o'z ijodlarida foydalandilar va uning nomini zo'r hurmat bilan tilga oldilar. Ibn Sino asarlarining miqdoriy nisbatiga nazar solsak, olimning qiziqish va e'tibori ko'proq falsafa va tibga qaratilganini ko'ramiz. Garchi, uni "Avitsenna" sifatida G'arbda mashhur qilgan uning tibbiy merosi, xususan, "Tib qonunlari" bo'lsada, "Shayx ar-Rais" nomi, avvalambor, uning buyuk faylasufligiga ishoradir. Ibn Sinoning yana bir falsafiy asari "Kitob annajot" "Kitob ash-shifo" ning qisqartirilgan shakli bo'lib, u ham qisman jahonning bir necha tillariga tarjima qilingan. Olimning falsafiy qarashlari yana "Al-ishorat vattanbihot" ("Ishoralari va tanbihlar"), "Hikmat almashriqiyn" ("Sharqchilar falsafasi"), "Kitob al-ishorat filmantiq va hikmat" ("Mantiq va falsafaning ishoralari"), fors tilida yozilgan "Donishnoma" ("Bilim kitobi") va boshqa turli hajmdagi falsafiy risolalarda hamda "Tayr qissasi", "Salomon va Ibsol", "Hayy ibn Yaqzon", "Yusuf qaqida qissa" kabi falsafiy mazmunli badiiy qissalarda o'z aksini topgan. Ibn Sinoning dunyoqarashi Aristotel ta'limoti va Forobiy asarlari ta'sirida shakllandi. Uning fikricha, falsafaning vazifasi mavjudotni, ya'ni barcha mavjud narsalarni, ularning kelib chiqishi, tartibi, o'zaro munosabati, bir-biriga o'tishini zaruriyat, imkoniyat, voqelik, sababiyat omillari asosida har tomonlama o'rganishdan iborat. Olamda mavjud barcha narsalar ikkiga bo'linadi: zaruriy vujud (vujudi vojib) va imkoniy vujud (vujudi mumkin). Zaruriy vujud eng irodali, qudratli, dono tangridir. Qolgan narsalar imkoniyat tarzida mavjud bo'lib, Tangridan kelib chiqadi. Zaruriy vujud bilan imkoniy vujud munosabati sabab munosabatidir. Abu Ali Sino Movarounnahrlik polimat, shifokor, matematik, astronom, fizik, kimyogar, geograf, geolog, shoir, mantiqchi, faylasuf, musiqachi va davlat arbobi edi. U dunyodagi eng mashhur va nufuzli faylasuf va olimlardan biri bo'lib, ayniqsa falsafa va tibbiyot sohalaridagi asarlari bilan ahamiyatlidir. Uning asosiy asarlari ikkita keng qamrovli ilmiy va falsafiy ensiklopediyalar, "Kitob ash-Shifo" va "Al-Alay ensiklopediyasi", shuningdek, tibbiyot tarixidagi eng mashhur asarlardan biri bo'lgan "Al-Qonun fi at-Tibb"dir. Ibn Sinoning jarrohlik va anatomiya sohasidagi qarashlari ham hayratlanarlidir. U ko'z



mushaklarining tuzilishini aniq tasvirlab bergan, qon to'xtatish usullarini ishlab chiqqan va og'riqli operatsiyalarda turli gilyohlar yordamida uxlatish (anesteziya) amaliyotini qo'llagan. Bundan tashqari, u farmakologiya faniga asos solib, 800 dan ortiq dori-darmonlar, ularning tayyorlanish usullari va inson organizmiga ta'sirini bayon etgan. U gigiyena va profilaktik tibbiyotning asoschilaridan biri hisoblanadi. U o'zining mashhur "Tib qonunlari" asarida salomatlikni saqlashning asosi sifatida aynan gigiyenani ko'rsatgan. Abu Ali ibn Sinoning jahon tibbiyoti va ilm-faniga qo'shgan hissasi dunyo miqyosida yuksak e'tirof etilgan. Yevropada u Avitsenna nomi bilan mashhur bo'lib, asrlar davomida "Tibbiyot shahzodasi" deb atab kelingan. Uning qarashlari G'arb Uyg'onish davri fanining shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatgan.

**Xulosa.** Ushbu maqolada buyuk ajdodimiz Abu Ali ibn Sinoning nafaqat o'z davri, balki butun insoniyat sivilizatsiyasi uchun naqadar ulkan dahlo bo'lganini yana bir bor his qilishimiz mumkin. Maqolada olimning hayot yo'li va faoliyati shunchaki quruq faktlar emas, balki uning jahon ilm-faniga qo'shgan hissalarini orqali tahlil qilingan.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari: 5 jildlik. – Toshkent: "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 1996.
2. M.M. Xayrullayev. "Uyg'onish davri va Sharq mutafakkiri". Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 1971. 45-52, 89-betlar.
3. Toshkent: "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2000. "Abu Ali ibn Sino" maqolasi, 67-71-betlar.
4. Ziyoz.uz elektron kutubxonasi. [www.ziyouz.uz](http://www.ziyouz.uz).
5. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. "Abu Ali ibn Sino" maqolasi.